

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**1/3-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



<b>Raxmanova M.A.</b> Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning mazmuni .....	349
<b>Hamroyev R.R.</b> Oliy ta'linda ijtimoiy-gumanitar fanlarni axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning muhim yo'nalishlari .....	354
<b>Суяров А.М.</b> Иновацион ёндашув асосида таълим муассасасида бошқарув фаолиятини ташкил этиш шарт-шароитлари .....	361
<b>Kuchkinov A. Yu.</b> Talabalarning ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda eko-steam yondashuvining imkoniyatlari .....	366
<b>Mamatova A.M.</b> Yangi tarbiya konsepti manbalari .....	372
<b>Jumanova F.U.</b> Yangi O'zbekiston sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligining pedagogik tahlili .....	376
<b>Rajabova M.T., Norbo'tayev X. B.</b> Maktab o'quvchilarida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarining o'rni .....	384
<b>Keldiyorova M.F.</b> Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayoniga tayyorlash .....	389
<b>Allambergenova M.X.</b> Oliy ta'linda axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish yo'llari .....	394
<b>Purxanova T.J.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida elektron axborot-ta'lim resurslaridan foydalанишнинг аhamiyati .....	399

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУӮХЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Alikulova M.Sh.</b> Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksilogik yondashuv asosida rivojlantirish troyektoriyasi .....	403
<b>Рахбаров У.Р.</b> Мафкуравий иммунитетни шакллантириша тарғибот технологияларидан фойдаланишнинг хориж тажрибаси .....	408
<b>Taylakova Sh.</b> Problems of juvenile delinquency: historical and modern approaches .....	413

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Purxanova T.J.</b> Matematika sabaqlarında akademiyalıq licey oqiwshilarınıń ózbetinshe jumisların shólkemlestirwdiń áhmiyeti .....	422
<b>Sindarov S.Q.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish muammoları .....	427
<b>Mallayev R.Q.</b> Bo'lajak informatika o'qituvchilariga kompyuter ta'minoti fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishda mobil texnologiyalardan foydalanish .....	433
<b>Xo'jamberdiyeva J.N.</b> O'quv-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishda atom fizikadan o'quv materiallарini tanlash tamoyillari .....	440
<b>Yuldasheva G.T. Fayzieva N.N.</b> Ta'lim klasterida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini tashkil etish .....	445
<b>Мадримов Р.М., Мирзаев С.С.</b> Норуда материалларини қазиб олишда атроф-мухитга таъсирини ҳозирги холати ва уларни олдини олиш йўллари .....	455
<b>Musurmanov N. U., Madrimov R.M.</b> Sirdaryo viloyatining ekologik holatiga ko'ra iqlim sharoitiga mos ihota daraxtzorlarni barpo etish .....	459
<b>Nurolliyev N.Sh.</b> Fizikani o'qitish jarayonida talabalarda ilmiy bilish faolligini mustaqil faoliyat turi sifatida o'rganish .....	465

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТҖРБИЯ

<b>Jumabaeva M.P.</b> Ana tili hám oqív sabaqların basqa pánler menen integraciyalap oqitiwidiń áhmiyeti .....	471
<b>Tuzikenova J.A.</b> So'zlarning nutqiy faoliyat turlari bilan bog'liq ravishda ishlatalishi .....	476
<b>To'rayeva S.S.</b> Boshlang'ich sinflarda frazeologik birliklar ustida ishlashda didaktik materiallarni tanlash mezonlari .....	481
<b>Jabborova O.M. Saparbaeva D.T.</b> Boshlang'ich ta'lim metodikasiga yangicha yondashuvlar .....	487



## YANGI TARBIYA KONSEPTI MANBALARI

**Mamatova A.M.**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch so‘zlar:** pedagogika, tarbiya, yangilanish, konsept, manba, yondashuv, zaruriyat, tizimlashtirish, tajriba.

**Ключевые слова:** педагогика, воспитание, обновление, понятие, ресурс, подход, необходимость, систематизация, опыт.

**Key words:** pedagogy, education, renewal, concept, resource, approach, necessity, systematization, experience.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan ta’limda sifatli ko‘rsatkichlarga erishish vazifalari ijrosi jarayonida o‘zbek milliy “Pedagogika”si fanining tayanch asoslari va maqsad-muddaolarini bugungi kun talablari aasosida takomillashtirish, ularga tuzatishlar va yangilanishlar kiritib borish muhim hisoblanadi[1]. Bu masala Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur yangi g‘oya va mo‘ljallar Tarbiya masalasida yangi konsepti asoslarini belgilab olish, ayniqsa, uning manbalarini tizimlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Shu ma’noda bu o‘rinda e’tiboringizni Tarbiyaning yangi konsepti manbalarini masalasiga e’tiboringizni tortamiz.

**Yangi Tarbiya konseptining milliy manbalari.** Tarbiyaning yangi konsepti Pedagogika fanining fundamental asosi sifatida idrok etilmoqda[2]. Shu ma’noda ushbu o‘quv fanining barcha asoslari Tarbiya masalasi doirasida tushuniladi va unda ushbu o‘quv fanining maqsad muddaolari, ob‘yektlari, nazariy hamda didaktik omillari va metodologik asoslari bu yondashuv asosida yagona uzviy bog‘liqlikda tushuniladi. Shu jihatdan bundan keyin Pedagogika fanining eng muhim asosiy masalalari bevosita Tarbiya konsepti doirasida o‘rganilishi, o‘zlashtirilishi va amaliyotga joriy etilishi mo‘ljallanayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Shu ma’noda bu o‘rinda yangi Tarbiya konseptining milliy manbalarini quyidagilar tashkil etishini eslatib o‘tish joiz:

- 1) xalq og‘zaki ijodidagi tarbiyaga oid namunalar;
- 2) yozma merosimizdagi tarbiyaga oid asarlar;



### 3) hozirgi zamон адабиё-педагогик асарларидаги тарбијага оид қатламлар.

Yangi Tarbiya konseptining asosiy manbalaridan biri xalq og‘zaki ijodidagi тарбијага оид намуналардир. Bunda asosan katta yoshlilarning kichik yoshlilar тарбијаси bilan shug‘ullanishi, oila tarbiyasining ustuvor hisoblanishi va тарбијада milliy qadriyatlar, an'analar hamda odatlarning birlamchi bilinishi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning Tarbiya yangi konsepti xalq og‘zaki ijodidagi тарбијага оид намуналарни yangicha yondashuvlar va yangi O‘zbekiston g‘ояси асосида tizimlashtirish hamda tahlil qilish vazifasini “Xalq pedagogikasi” o‘quv fani tomonidan amalga oshirilishi dolzarb bo‘lib turibdi.

Yangi Tarbiya konseptining muhim manbalaridan biri bu pedagogikamiz tarixida yaratilgan тарбијага оид eng muhim асарлардир. Shu ma’noda quyidagi тарбијага оид maxsus pedagogik асарларни alohida ta’kidlab o‘tish lozim: Ibn Sinoning “Shifo” асаридаги jismoniy тарбијага оид konsepsiya, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” асаридаги ijtimoiy тарбиya g‘ояси, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” асаридаги fazilatli тарбиya g‘ояси, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” асаридаги komil inson тарбијаси tamoyillari, Alisher Navoiyning “Farxod va Shirin” dostonidagi dunyoviy тарбиya g‘ояси, Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” асаридаги huquqiy тарбиya g‘ояси, Boborahim Mashrab she’riyatidagi ruhiy тарбиya konsepti, Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy асарларидаги ijtimoiy тарбиya g‘ояси, Ahmad Donishning “Navodir-ul vaqoi” асаридаги zamonaviy тарбиya g‘ояси, Abdurauf Fitratning “Najot yo‘li” асаридаги aqliy, jismoniy va ruhiy тарбиya konsepsiysi, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” асаридаги bilimdonlik тарбијаси g‘ояси, Shorasil Zununovning xalq hikmatlari асосида ishlab chiqilgan xalqparvarlik тарбиya g‘ояси va XX asr pedagog olimlarining taddiqotlarida asoslangan ilmiy тарбиya masalalari[3] yangicha nuqtai nazardan tahlil qilinishi hamda bugungi kun o‘zbek “Pedagogika”sining Tarbiya bo‘limida o‘z aksini topishi eng muhim vazifalardan биро bo‘lib turganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Bugungi kunda o‘zbek адабиё асарларда o‘ziga xos pedagogik қатlam mavjud bo‘lib, улarda тарбијага оид muhim асослар va omillar bayon qilib kelinmoqda. Shu jihatdan Tarbiya yangi konseptining asosiy manbalari sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” асаридаги mardlik va vafodorlik тарбијаси, Oybekning “Qutlug‘ qon” асаридаги milliy qiyofa тарбијаси, G‘ofur G‘ulomning she’riyatidagi yangi vatanparvarlik g‘ояси, Odil Yoqubovning “Mirzo Ulug‘bek” асаридаги ajdodlarga munosib vorislik тарбијаси, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” асаридаги Vatanparvarlik va Vatan tuyg‘usi тарбијаси, Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” асаридаги inson ruhiyati тарбијаси masalasi, Muhammad Alining “Amir Temur” tetrologiya асаридаги mardlik, jahongashtalik va jahon xalqlari uchun fidoyilik тарбијаси каби masalalar talqin etilishi hamda hozirgi zamон o‘zbek “Pedagogika”si o‘quv fanlarida o‘z ifodasini topishi dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.



E'tibor berilsa, Tarbiya yangi konseptining milliy manbalarini ana shu uch tarkibdan iborat muhim asarlar tashkil etadi va ularni zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganib tizimlashtirish zaruriyat bo'lib turganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

***Yangi Tarbiya konseptining jahon xalqlari pedagogik manbalari.*** Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida idrok etilayotgan Tarbiya yangi konseptining jahon xalqlari pedagogik manbalaridagi ildizlarini aniqlab olish va ularni tizimli tahlil qilib, amaliyotda foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bu borada ayniqsa, Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika", Genrix Gobisning "Emel", Logan Pistalosiining "Gerkurga maktublar", Konstantin Dmitrevich Ushinskiyning "Tarbiyada xalq ruhi", Jon Dyuning "Xarakter", Albert Kamyuning "Isyonkor odam", Erix Frommning "Begonalik" pedagogik asarlarida bayon qilingan zamonaviy odam tarbiyasi, Modern jamiyat tarbiyasi va umuminsoniy tipik tarbiya masalalari Tarbiya yangi konseptining muhim xalqaro miqyosdag'i manbalari hisoblanadi. Bu noyob pedagogik asarlarda insonni zamonaviylashtirish, uni o'z zamoni va davrining ruhiga mos ravishda tarbiyalash va voyaga yetkazish, insonni kundalik baxtli daqiqalarini his qilishga o'rgatish kabi masalalarga oid konseptual tarzda bayon qilingan g'oyalar, usullar va yondashuvlar tahlil qilinib, "Pedagogika" o'quv fanining yangi avlod adabiyotlarida o'z ifodasini topishi muhim ekanligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, Tarbiya yangi konseptining jahon xalqlari pedagogik merosi va undagi bevosita tarbiyaga oid qatlamlarning yuksak darajada mavjudligi, ularda shaxs yashayotgan zamon va makon ruhining aks etganligi, insonni murakakab ijtimoiy sharoitlarda faqat Tarbiya vositasida saqlab qolish g'oyalarining bayon qilinganligi mazkur pedagogik manbalarni yangicha va zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganish hamda tizimlashtirish muhim amaliy samara berishini ta'kidlab o'tish lozim.

***Yangi tarbiya konseptining ilmiy-pedagogik merosi.*** Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida idrok etilayotgan Tarbiya yangi konseptining eng muhim manbalaridan birini pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy g'oyalar, asosli metodikalar va yo'naltirish mo'ljallari tashkil qiladi. Shu jihatdan mazkur merosning quyidagi shakllarini alohida ta'kidlab o'tish lozim:

- 1) *milliy pedagogik ilmiy tadqiqotlar.* Bu merosda o'zbek pedagog olimlari tomonidan tarbiya nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi masalalari ishlab chiqilgan, ular asosida shaxs tarbiyasini amalga oshirishning an'anaviy mexanizmlari tarkib toptirilgan va bu meros tajriba-sinovdan o'tganligi bilan asosiy tayanch manbasi sifatida qabul qilinishini ta'kidlash lozim;



2) *jahon xalqlari olimlari tomonidan yaratilgan pedagogik ilmiy tadqiqotlar.* Bu borada zamonaviy texnik imkoniyatlar va texnologiyalar asosida inson miya organining imkoniyatlari va inson organizmining tarbiya talabları hamda mexanizmlarini amalga oshirishda mos keladigan tavsiyalar, yondashuvlar, g‘oyalar, konsepsiylar va metodikalar ishlab chiqilgan, bu asoslarga ko‘ra, shaxsni jismoniy, aqliy va ruhiy tarbiyalashda zamonaviys texnik volsitalarning imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha muhim texnologiya asoslarning yaratilganligi mazkur manbalarning bugungi kundagi asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib xizmat qilishini ta’minlaydi.

Tarbiya yangi konseptining ushbu pedagogik ilmiy-tadqiqot manbalaridagi ta’kidlangan masalalarni yangicha nuqtai nazardan o‘rganish, tahlil qilish va ulardan amaliy foydalanishning zamonaviy tayanchlarini ishlab chiqish bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Ma’lum bo‘ladiki, bugungi taraqqiyotimiz va jamiyatimiz sharoitida idrok etilayotgan Tarbiya masalasining yangi konsepti manbalari o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan va ularni o‘rganish dolzarb bo‘lib turganligi bilan diqqatni tortadi. Bunda eskilik bag‘ridagi yangilikni kashf qilish tamoyiliga asosan ilmiy, amaliy va metodik faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shundas qilib bizning zamonaviy jamiyatimizda Tarbiya masalasining yangicha idrok etilishi, mazkur masalaning ildizlarini bugungi talablar asosida zamonaviy shakllarda taxlil qilish, o‘rganish hamda ulardan foydalanishning tayanch mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun ilmiy – pedagogik tadqiqot muassasalari va oliv pedagogik ta’lim muassasalarining zamonaviy yondashuvlarga asoslangan yangicha ilmiy – metodik hamkorligini yo‘lga qo‘yish kutilgan samaranı beradi. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha pedagogik olimlarning yakdil yondashuvlarini tarkib toptirish va asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilab olish dolzarb bo‘lib turganligini ta’kidlab olamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. O‘zbekiston Respubliksi Vazirlar Mahg‘amasining 2020 yil 6 iyundagi 422-soni Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiysi”. // [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. O‘zbek pedagogik qomusi. 1-3 Tom. – Toshkent, 2015-2018.

#### **РЕЗЮМЕ**

Maqolada o‘zbek Pedagogikasida idrok etilayotgan Tarbiya yangi konseptining manbalari to‘g‘risida fikr yuritilgan va ularni tizimlashtirishga doir takliflar taqdim etilgan.

#### **РЕЗЮМЕ**

В статье рассмотрены источники новой концепции воспринимаемого воспитания в узбекской педагогике и представлены предложения по их систематизации.

#### **SUMMARY**

The article examines the sources of a new concept of perceived education in Uzbek pedagogy and presents proposals for their systematization.